XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING QARORI

190400, Boysun tuman, Hayot abadiy ko'chasi 1-uy, tel (376)33 53259

2022 - yil 30 - iyun VI-50-65-8-110-K/22 Boysun tuman hokimligi

Tumandagi ziyoratgohlarning nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 2-fevraldagi 06-06/12-sonli, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 18-fevraldagi 18-07/50-sonli hamda Respublika Kadastr agentligining 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-sonli “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi davlat ekspertizasi xulosasi tshg‘risida”gi yig‘ilish bayonlarini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 2-fevraldagi 06-06/12-sonli, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 18-fevraldagi 18-07/50-sonli hamda Respublika Kadastr agentligining 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-sonli “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi davlat ekspertizasi xulosasi to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayonlari ma’qullansin.

2. Tumanda nomlari tasdiqlaniyotgan ziyoratgohlarning ro‘yxati

ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (A.R.Saidov), tuman qurilish bo‘limi (X.N.Sharipov), tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari tasdiqlanayotgan ziyoratgohlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman qurilish bo‘limi (X.N.Sharipov) hududlarda nomlari tasdiqlanayotgan ziyoratgohlarning peshlavhalarini zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati (Yu.Xoliyorov) mazkur qarorning “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinishi hamda hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.B.Bahovuddinov), Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.N.Tursunqulov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.Ch.Jo'rayev**

Xalq deputatlari Boysun tuman
Kengashining
2022 yil 30 iyundagi
VI-50-65-8-110-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi nomlari tasdiqlanayotgan ziyoratgohlarning ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Ziyoratgoh	Temirdarvoza MFY	Nomsiz	Xo‘jamayxona	Xo‘jamayxona
2.	Ziyoratgoh	Bibishirin MFY	Nomsiz	Bibishirin	Bibishirin
3.	Ziyoratgoh	Bog‘ibolo MFY	Nomsiz	Xoja Surxpo‘shi vali	Xoja Surxpo‘shi vali
4.	Ziyoratgoh	Inkobod MFY	Nomsiz	Kamari Aziz	Kamari Aziz
5.	Ziyoratgoh	Inkobod MFY	Nomsiz	Hazrati Sultoni Vali Balogardon	Hazrati Sultoni Vali Balogardon
6.	Ziyoratgoh	Inkobod MFY	Nomsiz	Xo‘ja qo‘chqorota	Xo‘ja qo‘chqorota
7.	Ziyoratgoh	Inkobod MFY	Nomsiz	Siddiq Sahoba	Siddiq Sahoba
8.	Ziyoratgoh	Pulhokim MFY	Nomsiz	Hazrati Eshonbobo	Hazrati Eshonbobo
9.	Ziyoratgoh	Yuqori Machay MFY	Nomsiz	Mirzoqulso‘fi	Mirzoqulso‘fi